XALQ DEPUTATLARI G‘OZG‘ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-avgust VII-12-89-5-210-K/25 G‘ozg‘on shahar

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi taklifiga binoan, shaharda To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senatining 2019-yil 14-sentyabrdagi “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni tartibga solish to‘g‘risida”gi 2736-III/KQ-592-III-sonli Qo‘shma qarorini ba’zi bir hududlarda to‘liq ijro etilmasligi sababli, to‘y-hasham, marosim va unga doir turli oilaviy tadbirlar isrofgarchilik va dabdababozlik bilan o‘tkazilishi keng jamoatchilikni tashvishga solayotganligi, aholining taklif va murojaatlariga muvofiq, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi taklifiga binoan, shaharda “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risi”da Shahar madaniyat bo‘limi boshlig‘i Sh.Rahmonovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlari kabi tadbirlar o‘tkazilishini tartibga solish masalalari bo‘yicha xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlari, O‘zbekiston Mahallalar uyushmasining shahar bo‘limi, “Nuroniy” jamg‘armasi shahar bo‘limi, Ma’naviyat va ma’rifat markazi shahar bo‘limi, oila va xotin-qizlar bo‘limi, Yoshlar ishlari agentligi shahar bo‘limi va boshqa hududiy davlat hamda nodavlat notijorat tashkilotlar bilan birgalikda keng jamoatchilikning muvofiqlashtiruvchi “Jamoatchilik Kengashi” tarkibi **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Oliy Majlis Senatining 2019-yil 14-sentabrdagi 2736-III/KQ-592-III-sonli Qo‘shma qarori Nizomi talablariga asosan, “Jamoatchilik Kengashi”ning maqsad va vazifalari quyidagi tartibda belgilansin:

- shahar hududida o‘tkaziladigan to‘ylar, ma’raka va marosimlar, oilaviy unga doir boshqa tadbirlarida jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, hamda to‘y va marosim egalari bilan ixcham, isrofgarchiliksiz va belgilangan talablar asosida, o‘tkazish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

- keng jamoatchilik vakillarini jalb qilgan holda, mazkur tadbirlarni tartibga solish hamda ixcham va milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar asosida o‘tkazish bo‘yicha aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;

- mazkur tadbirlarni amalga oshirishda ijtimoiy tabaqalanishga yo‘l qo‘ymasdan o‘tkazish bo‘yicha jamoaviy suhbatlar tashkil etish;

- mazkur tadbirlarni o‘tkazishni rejalashtirgan oila vakillari bilan, ayniqsa, nikohning ilk davrlarida er-xotin va ularning ota-onalari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash borasida suhbatlar tashkil etish;

- xotin-qizlarga mazkur tadbirlarni kamxarajat qilib o‘tkazishni, ularda ortiqcha isrofgarchilikka berilish oila iqtisodiga va yosh oilaning mustahkamligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini hayotiy misollar orqali keng tushuntirish;

- turmush qurish arafasida turgan yoshlar bilan ijtimoiy-psixologik suhbatlar uyushtirishi, ularni oilaviy hayotga tayyorlashi, mazkur tadbirlarni ixcham va isrofgarchiliksiz o‘tkazish bo‘yicha targ‘ibot ishlarini olib borishi bo‘yicha ishlarni amalga oshirish tavsiya etilsin.

4. To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar faqat bir kun (dafn etish marosimi bundan mustasno) soat 06:00 va 23:00 oralig‘ida o‘tkazish, Soat 23:00 dan keyin to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarni davom ettirishga yo‘l qo‘yilmaslik;

- to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda 200 nafargacha, mazkur tadbirlar munosabati bilan osh berish marosimida 250 nafargacha kishi qatnashishi;

- qo‘shaloq to‘ylarda 250 nafargacha, u bilan bog‘liq osh berish marosimida 300 nafargacha kishi qatnashishi mumkinligi;

- nikohni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, kelin-kuyovning to‘yxonaga kelishi va ketishi bilan bog‘liq oilaviy tadbirlarda 3 tadan ko‘p bo‘lgan yengil avtomashinadan yoki jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi boshqa transport vositalaridan foydalanmaslik (to‘y egalarining shaxsiy avtomashinalaridan hamda homiylar yordamida jalb etilgan avtotransport vositalaridan foydalanilgan hollar bundan mustasno);

- dafn etish va motam marosimlari ko‘pi bilan uch kun mobaynida cheklanmagan miqdordagi fuqarolar ishtirokida o‘tkazilishi mumkin (osh berish marosimi bundan mustasno).

5. Kengashning ushbu qarori bilan aholini tanishtirish maqsadida shahardagi barcha MFYlari, aholi yashash va mehnat jamoalari joylariga hamda restoran, oshxona, kafe va to‘yxonalarda tadbirlarni o‘tkazish tartib taomillarini alohida eslatma tarzida tayyorlanib qo‘yilishi ta’minlansin.

Jamoatchilik Kengashi tomonidan amalga oshirilgan ishlar har chorakda keng muhokama qilib borilsin va bu haqida jamoatchilikka xabardor qilinsin.

6. Shahar bosh imom-xatibi (Y.Bomullayev)ga:

- to‘ylar, oilaviy tantanalar,ma’raka va marosimlarda diniy mavzuda ma’ruza ko‘zda tutilgan bo‘lsa, ushbu ma’ruza diniy tashkilotining vakolatli vakili tomonidan o‘qilishi;

- to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar, xotiraga bag‘ishlangan tadbirlarni ixcham o‘tkazish va tadbirlarni dabdabali o‘tkazish o‘rniga mablag‘ni kam ta’minlangan fuqarolarni moddiy qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirishni targ‘ib qilish;

- imom-xatiblar to‘ylar va marosimlardagi ma’ruzalarida aholi e’tiborini yoshlar tarbiyasi, ota-onaning mas’uliyati, jamiyat hayotiga xavf solayotgan tahdidlarni oldini

olish, tinchlik va mustaqillik ne’matini asrash, shukronalik tuyg‘usini shakllantirish kabi masalalarga qaratishi tavsiya etilsin.

7. Shahar hokimligi axborot xizmati, “Navqiron G‘ozg‘on” shahar gazetasi tahririyati (E.Esanov) bilan birgalikda:

- ushbu qaror e’lon qilinishi va to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar va boshqa tadbirlarni tartibga solish masalalarini keng yoritish va targ‘ibot ishlarini olib borish;

- ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali namunali to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar haqida jamoatchilik fikrini shakllantirishi, ijtimoiy roliklar yaratishi, uslubiy qo‘llanmalar va targ‘ibot materiallarini tayyorlash;

- to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlarda milliy qadriyatlarimizga yot bo‘lgan “ommaviy madaniyat” unsurlari namoyon bo‘lishining oldini olish maqsadida muntazam ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini olib borilishini tashkil etish tavsiya etilsin.

8. Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlariga:

qaror mazmun-mohiyatini o‘z hududlarida keng targ‘ib qilish hamda ijrosini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish va ta’minlash shahar hokimining o‘rinbosarlari (R.Shodiyev, D.Egamova) va xalq deputatlari shahar Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish, ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Jo‘rayeva) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi JO‘RAYEV NURALI SHUHRATOVICH

Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar
Kengashining
2025-yil 29-avgustdagi
VII-12-89-5-210-K/25 -son qaroriga
1-ilova

G‘ozg‘on shahrida to‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar, xotiraga bag‘ishlangan tadbirlarni muvofiqlashtiruvchi “Jamoatchilik Kengashi” TARKIBI

T/r	F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1	**Jo‘rayev Nurali Shuhratovich**	Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashi raisi, *jamoatchilik Kengashi rahbari*
2	Shodiyev Ruslan Xudoynazar o`g`li	G‘ozg‘on shahar hokimi o‘rinbosari, *Jamoatchilik Kengashi rahbari o‘rinbosari*
3	Egamova Dilorom Istamovna	G‘ozg‘on shahar hokimi o‘rinbosari, *jamoatchilik Kengashi rahbari o‘rinbosari*
4	Jo‘rayeva Ruhsora Sobirovna	Xalq deputatlari G‘ozg‘on shahar Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish, ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi
5	Sharopov Mavlon	“Nuroniy”jamg‘armasi G‘ozg‘on shahar bo‘limi raisi, *jamoatchilik Kengashi mas’ul kotibi*
6	Lavozimiga ko‘ra	G‘ozg‘on shahar prokurori yordamchisi
7	Sh.I.O‘roqov	G‘ozg‘on shahar ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari
8	Boboyev Saidno‘mon Sanaqulovich	G‘ozg‘on shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari
9	Raimov Suxrob Dilmurodovich	G‘ozg‘on shahar soliq boshqarmasi boshlig‘i
10	Ulug‘ov Otabek Saparovich	G‘ozg‘on shahar adliya bo‘limi boshlig‘i
11	Bo‘ronov O‘tkir O‘ktamovich	O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi G‘ozg‘on shahar hududiy bo‘limi boshlig‘i
12	Baxrinov Suxrob Safarqulovich	G‘ozg‘on shahar statistika bo‘limi boshlig‘i
13	Bomullayev Yusuf	G‘ozg‘on shahar bosh imom xatibi

14	Lavozimiga ko‘ra	G‘ozg‘on shahar madaniyat bo‘limi boshlig‘i
15	Rahmonov Sheroz Otabek o`g`li	Respublika Ma’naviyat-ma’rifat markazi G‘ozg‘on shahar bo‘limi rahbari
16	Ergashova Mo‘taram Sadullaevna	O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi G‘ozg‘on shahar Kengashida jamoatchilik asosida ishlovchi
17	Lavozimiga ko‘ra	Yoshlar ishlari agentligi G‘ozg‘on shahar bo‘limi boshlig‘i
18	Hamrayev Madaminjon Hasanovich	G‘ozg‘on shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
19	Lavozimiga ko‘ra	G‘ozg‘on shahar sog‘liqni saqlash bo‘limi boshlig‘i
20	Sharipov Boliqul	Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining G‘ozg‘on shahar bo‘limi boshlig‘i
21	Lavozimiga ko‘ra	G‘ozg‘on shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
22	Abdiqodirov Shohruhjon Baxodir o‘g‘li	“Inson” ijtimoiy markazi G‘ozg‘on shahar bo‘limi boshlig‘i

Izoh: *Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar kiritiladi.*